

## O'ZBEKISTONDA IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARI EVAKUATSIYA JARAYONI: MUAMMOLARI VA YECHIMI

M.Xoliqulova

Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10153013>

**Annotatsiya:** Ikkinci jahon urushi yillarida sovet davlati tarkibida bo'lgan O'zbekistonda ham qisqa fursat mobaynida sanoat urush sharoitiga moslashtirildi. G'arbdan ko'chirib keltirilgan sanoat korxonalari O'zbekistonning turli hududlariga evakuatsiya qilindi. Bu jarayonlar O'zbekistonning har bir viloyatida o'ziga xos tarzda kechdi.

**Kalit so'zlar:** Ikkinci jahon urushi, sanoat korxonalari, ilmiy muassasalar, "Rostselmash", "Qizil Oqsoy".

Ikkinci jahon urushi yillarida O'zbekiston eng yirik evakuatsiya markazlaridan biriga aylandi. Urush yillarida O'zbekistonning o'ziga jami 104 ta zavod va fabrika evakuatsiya qilindi. SSSR Xalq Komissarlari Soveti va Butunitifoq Bolsheviklar Kommunistik partiyasi Markaziy Komitetining 1941 yil 29 iyundagi direktivasiga asosan Sovet Ittifoqi iqtisodiyoti urush holatiga o'tkazildi. O'zbekistonda evakuatsiya qilingan sanoat korxonalarini joylashtirish, o'rnatish va ishga tushirishni boshqarish bo'yicha Davlat iqtisodiy komissiyasi tuzildi.

Urushning dastlabki oylarida o'lcamizga ko'chirib keltirilgan sanoat korxonalari va ularning 19565 ishchi va xizmatchisi, 40155 oila a'zolarini qabul qilib olish, joylashtirish qisqa muddatda muvaffaqiyatl hal etildi. Ular shahar va tuman markazlarida, dehqon xo'jaliklarda, korxonalarda, xonadonlarda bolalar esa o'qishga, ishga, bog'cha va yasrilarga, bolalar uylariga, oilalarga tarqatildi. Qisqa muddatda ular uchun 135127 kv.m. uy-joy ajratib berildi[2].

1941 yil 10 dekabrdagi SSSR Davlat Reja Qo'mitasi ma'lumotnomasida evakuatsiya bilan bog'liq kamchiliklar haqida fikr bildirilgan edi[3].

Jumladan, ba'zi hollarda korxonalarni demontaj qilish tartibsiz holda amalga oshirilib, shu sababli evakuatsiya joyiga yetib kelgandi korxonalarda ishlab chiqarish jarayonini tezlikda tiklashda ma'lum dastgohlar yetishmagan. Ushbu dastgohni topib, ish jarayonini boshlash uchun qo'shimcha qimmatli vaqt va mablag' talab etildi. Yuqoridagi muammolarni ma'lum ma'noda tartibga solish, O'zbekistonda ko'chirilgan korxonalarini qabul qilish, joylashtirish va ishga tushirish masalalarini tezkorlik bilan hal qilish maqsadida maxsus komissiya tuzildi[4].

O'zbekiston hukumati mazkur korxonalarni va ular bilan birga kelgan ishchilarni, mutaxassislarni qabul qilib olish, ularga zarur shart-sharoitlar yaratib berishga kirishdi. Shu maqsadda u ko'chirilgan sanoat korxonalarini qabul qilish, joylashtirish, ishga tushirish, mutaxassislar uchun shart-sharoitlar yaratish, uy-joy va oziq-ovqat bilan ta'minlash haqida 1941 yil 2 avgustda qaror qabul qildi. Mazkur qarorga muvofiq davlat komissiyasi tuzildi va joylarda evakuatsiya qilinganlarni qabul qilish, uy-joy, oziq-ovqat bilan ta'minlash bo'limlari tashkil etildi. O'zbekiston KP (b) MK ham 1942 yil 21 fevralda "Evakuatsiya qilinganlar sharoiti va ularni mehnat bilan ta'minlash masaaliasini ko'rib chiqdi. Mazkur yig'ilishda respublikadagi partiya tashkilotlari, kolxoz va sovxozi, viloyat va rayonlardagi mas'ul xodimlar evakuatsiya qilinganlar uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berish shart ekanligi ta'kidlandi"[5].

Dastlab front yoqasidagi ko'chirib keltirilgan kishilardan 342 tasi har-xil ish bilan ta'minlandi. Ukrain farzandi F.L.Klochko Qarshi shahriga kelib, u yoshlarning ishlariga rahbarlik qildi. Dasht qishloq kengashidagi Qora tepa qishlog'i ustaxonasida arman kishisi Sakayan,

Taktorchi, Okrogonva, yahudiy Rozenburg, suykolar dehqonlar bilan birga yashadi va ishladi. 1942 yilining keyingi 5 oyi ichida o'zbek eliga qo'shimcha 70323 kishi ko'chirib keltirildi. Ular asosan Buxoro, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hududlariga keltirildi. Keltirilganlar fashistlar tomonidan uysiz, boshpanasiz, oziq-ovqatsiz qoldirilgan kishilar edilar. Biroq, ular O'zbekistonda boshpanasiz, och-yalang'och qolmadilar, hukumat tomonidan tuzilgan komissiyalar yordamida uy-joy ish bilan ta'minlandi. Moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlandi, keksalarga nafaqa to'landi[6].

Mehnatga yaroqli erkaklarning armiyaga safarbar qilinganligi tufayli ishlab chchiqarish tarmoqlarida ishchilar va injener texnik kadrlar tanqisligi paydo bo'ldi. Shul bois kadrlar tayyorlash muammosi avvalo fabrika-zavod ta'limi maktablarida, hunar-bilim yurtlari, qiga muddatli turli kurslarda, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida hal qilindi. So'ngra respublikada yakka tartibda va brigada tariqasida hunar o'rganish va ikkinchi ixtisoslikni egallash yo'lga qo'yildi.

Butun O'zbekistonda bo'lgani kabi Andijonda ham davlat komissiyasi rahbarligida sanoatni qayta qurish ishlari olib borildi. Urush yillarida Andijonning butun sanoati mudofaa mahsulotlari ishlab chiqarishga o'tdi. Uskunalarning qat'iy hisobi yo'lga qo'yildi, resurslar va materiallardan tejamkorlik bilan foydalanish tashkil etildi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar assortimenti o'zgartirildi. Shunday qilib, shahar kiyim-kechak sanoati, xususan, shahar sanoat majmuasi, "Bolshevik", "Tikuvchi", "Inshveytrud" artellari front uchun issiq kiyim va ichki kiyim ishlab chiqara boshladi. Kommunar va Avtotraktorodetal zavodlari harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi [1].

Andijonliklar mamlakatimizning g'arbiy hududidan evakuatsiya qilingan korxonalarni joylashtirish va tezkorlik bilan ishga tushirishga alohida e'tibor qaratdi. Bu katta qiyinchiliklar bilan bog'liq edi, chunki tegishli binolar va malakali mutaxassislar etarli emas edi. Bundan tashqari, jo'natilgan poyezdlar demontaj qilingan holda Andijonning so'nggi manziliga yetib keldi. Evakuatsiya qilingan uskunalarni o'rnatish qiyin sharoitlarda amalga oshirildi. Yuklarni tushirish va etkazib berish bilan bir vaqtda, ajratilgan binolarni ishlab chiqarish uchun mos standartlarga moslashtirish masalalarini hal qilish kerak edi.

1941 yil iyul oyining o'zida Ursatevsk stantsiyasida 300 dan ortiq, Samarqandda 250 dan ko'proq, «Tashselmash» zavodida 220, Andijon parovoz deposida 120 dan ortiq xotin-qizlar frontga ketgan o'z otalari, aklari va erlarining o'rniqa ishga kirib mardonavor mehnat qildilar. Bunday «Vatanparvarlik» harakati butun O'zbekistonda, shu jumladan qishloqlarimizda ham keng quloch yoydi. O'zbek xalqi Ukraina, Belorussiya, Boltqbo'yи va Rusiya Federatsiyasi yerlariga qilingan hujumni jonajon o'z yurti - O'zbekistonga qilingan hujum hisoblab har jahada qahramonlik mo'jizalarini ko'rsatdilar.

O'zbekistonga bunday yirik sanoat korxonalarining ko'chirib keltirilishi respublikamizni SSSRning Sovet Armiyasining qudratli harbiy mudofaa arsenaliga aylantiribgina qolmay, mamlakat iqtisodiy potentsialini yoppasiga kuchaytirishga, sanoat mahsulotlarining o'sishiga ham olib keldi. Yirik sanoat korxonalarini bilan bir qatorda O'zbekistonga Ittifoqning G'arbiy huddudlaridan fan, maorif va madaniyat muassasalari, ming-minglab boshpanasiz qolgan oilalar, ota-onasiz etim qolgan yosh go'dak bolalar ham evakuatsiya qilindi. O'rta Osiyoga jami bo'lib, 3 million kishi ko'chirildi. Shundan 2 million 300 minggi Qozog'istonga, 716 ming kishi O'zbekistonda joylashtirildi. Bu ish 1941 yil 3 dekabrda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti evakuatsiya qilingan sovet fuqarolarini qabul qilish va joylashtirish bo'yicha qabul

qilgan maxsus qarori asosida amalga oshirildi. Qarorda ota-onasiz qolgan bolalarga g'amxo'rlik qilishga alohida e'tibor berilib, Toshkent shahrida maxsus qabul shaxobchasi tashkil qilindi. O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan aholini o'zbek xalqi o'zining issiq bag'riga oldi, ularga mehr-oqibat ko'rsatdi, uy-joy bilan ta'minladi, oziq-ovqat berdi. Ota-onasiz, etim-esir qolgan bolalarning ko'pchiligi ham O'rta Osiyo respublikalariga, xususan O'zbekiston yuborildi. Faqat 1941 yilning o'zida 200 ming bola bolalar uylariga joylashtirildi. Minglab-minglab bolalarni o'zbek oilalari o'z issiq qalblariga oldilar. 1943 yilga qadar 4672 etim-esir o'zbek xalqining mehr qalbi haroratidan va adolatlik diyonatidan bahramanda bo'ldilar[7].

«Toshkentga kelib bolalar uylarining oldida bola olish uchun navbatda turgan odamlarni ko'rib xayratga tushdim», deb yozgandi mashhur bolalar shoiri Korney Chukovskiy.

Respublikada umumxalq mudofaa fondi tashkil qilindi. Urushning birinchi kunlaridayoq 1941 yil 21 avgustgacha mudofaa fondiga hammasi bo'lib 5 million 293 ming so'm pul, zayom obligatsiyalari va qimmatbaho buyumlarni topshirilgan bo'lsa, bir oydan so'ng mudofaa fondi 70 million so'mga ko'paydi. Bundan tashqari respublika mehnatkashlari mudofaa fondiga 2389 sentner don, 1808 sentner go'sht, 200 sentner jun, 1495 sentner pichan, 325 sentner quruq meva, 430 sentner sabzavot, qovun-tarvuz[8] va shu kabilarni jo'natdilar.

Xullas, O'zbekistonning zahmatkash mehnatkashlari o'z vijdon va da'vati bilan respublikani fashizmga qarshi kurashda Ittifoqning bastionlaridan biriga aylantirdi. Bu hol esa so'zsiz suratda SSSRning Germaniya ustidan g'alaba qozonishini ta'minlagan eng muhim omillardan biri bo'ldi.

### References:

1. История Андижана. – Ташкент: «Фан», 1980. – С.136.
2. Ulug' Vatan urushi. Savol va javoblar. Toshkent, 1978. – В.109.
3. Симонов Н. Военно-промышленный комплекс СССР в 1920-1950-е годы: темпы экономического роста, структура, организация производства и управление. – Москва: РОССПЭН, 1996. – С. 142.
4. Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны. Т. 1. ... – С. 115.
5. Иноятов Ҳ.Ш. Фалабага қўшилган ҳисса. – Т.: “Ўзбекистон”, 1975. – Б. 71-72.
6. Халқ сўзи, 1992 йил4 апрель.
7. Каримов Ш. Фалабага қўшилган ҳисса,-Т.: Ўзбекистон, 1990, 20-бет.
8. Ўзбекистон ССР тарихи. Тўртинчи том.-Т. Фан, 1971, 91-бет.